NAVOIYGA MUNOSIB IZDOSH

Raimova Hilola Ma'murjon qizi
Qo'qon universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
O'zbekiston
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20199193

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ijodiy an'analari va ularning keyingi davr adabiyotiga ta'siri masalasi yoritiladi. Xususan, Amiriy ijodi Navoiy maktabining munosib davomchisi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada har ikki shoir asarlaridagi g'oyaviy-badiiy mushtaraklik, til va uslub masalalari, tasavvufiy qarashlar hamda insonparvarlik g'oyalari qiyosiy tahlil asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Amiriy Navoiy an'analarini ijodiy o'zlashtirgan, ularni o'z davri ruhiga mos ravishda rivojlantirgan shoir sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, uslub, til, adabiy an'ana, ijodkor, g'azal, muxammas, badiiy san'atlar, tasavvuf, tashbeh, takrir, mubolag'a, ijodiy izdoshlik.

Alisher Navoiy ijodi nafaqat o'z davrida, balki o'zidan keyingi zamonlar uchun ham takrorlanmas adabiy boylikdir. Shuning uchun ham uning ulkan adabiy merosi oradan necha yuz yillar o'tsa-da, xalqimiz ma'naviy hayotida o'chmas iz qoldirib, zamonlar osha jodkorlarning maydonga kelishi va ijodiy takomillashuviga ta'sir ko'rsatib kelmoqda Buyuk mutafakkirdan keyin adabiyot maydoniga kirib kelgan har bir ijodkor Navoiy asarlarini o'qimasdan, ulardan ilhomlanmasdan, qalam tebratishi amri mahol. Alisher Navoiyning barkamol va betakror asarlarini, ulardagi yuksak mahorat va donishmandnamo fikrlarini o'ziga ibrat maktabi deb bilgan ijodkor borki, shoirga ergashishga, Navoiy ta'sirida asar yozishga harakat qilgan. Chunki ijodkor sifatida she'riyatning baland cho'qqilariga ko'tarilish, badiiy ijodning o'ziga xos sir-asrorlarini egallash hamda badiiy mahoratga ega bo'lishda Alisher Navoiy ijodining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Qo'qon adabiy muhitining asoschisi va rahnamosi Umarxon Amiriy ham ana shunday Navoiy ijod maktabidan ta'lim olganlardandir.

Po'latjon domulla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asarining 40-fiqrasida Amiriy to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin: "Bu kishi Xo'qand shaharidan bo'lub, nomi Umarbek bo'lub, shohruxiylardan Norbo'tabiyning o'g'lidur… She'rda taxallusi Amirdur… Ustoz Muhammad Ya'qubdan tahsili irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo'lub, bir devonga egadir".

Bir umr Qo'qon adabiy muhiti tadqiqi va targ'ibi bilan shug'ullangan taniqli adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov Amiriy haqida "Navoiy davridan keyin adabiyotimizda ikkinchi oltin asrni boshlab bergan…" degan fikrlarni keltirib o'tadi.

Amiriy tengsiz iste'dod sohibi sifatida salaflari ijodidan chuqur bahramand bo'lgan va o'z asarlarida buning ta'sirini ko'ramiz. Chunonchi, Hazrat Alisher Navoiyning buyuk "Xamsa"si tarkibiga kirgan "Farhod va Shirin" dostonida Xusrav va Farhodning aytishuvi berilgan, hamda ushbu aytishuv orqali Farhod tilidan chinakam ishqning qiymati ko'rsatib o'tilgan. Amiriy o'zining "Gar ko'zimdin g'oyib o'lsa bir nafas mohim maning" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida aynan o'sha ishqi ilohiy haqiqatlariga murojaat qilgani seziladi.

Alisher Navoiy:
Dedi: "Nedur senga olamda pesha?"
Dedi: "Ishq ichra majnunliq hamesha." [1.235]

Amiriy: *Zohido, dersanki: "Oshiqlig'da maqsuding nedur?"*
Bo'lmagay ishqidin o'zga hech dilxohim maning. [2.164]

Yoki, Alisher Navoiy bir g'azalida yorning kipriklarini tasvir ob'ekti qilib oladi:

Vahki, har kiprigi bir nishtar erur zahrolud,
Garchi bor ul iki nargisda shakarxob to'la.[3.193]

Kipriklarni aynan nishtarga o'xshatilishi, uning oshiq qalbini zaharlashi Navoiy talqinida o'zgacha bir tus olgan.

Shoirlarning o'z topilmalari zahirasini boyitgan o'xshatishlar esa mana shu an'analarni yangilagan yaratiqlardir. Bunday yaratiqlar Amiriyda ham talaygina.

Noziktab ijodkor Amiriy ham bu borada qator o'ziga xos o'xshatishlarni qo'llaganki, bularni hech ikkilanmasdan, amiriyona tashbehlar deyish mumkin. Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, uning yor yuzi, ko'zi, kipriklari, qoshi-yu lablarini mumtoz adabiyotdagi an'anaviy tashbehlardan foydalanib go'zal o'xshatishlar qilish barobarida o'ziga xos yangi topilmalar qilganligiga ham guvoh bo'lamiz

Mumtoz adabiyotdagi obrazlar u inson obrazimi, samoviy jismlar obrazimi, yoki tasavvufiy timsollarmi barchasiga yuklangan ma'nolarni o'quvchiga yetkazish uchun tashbeh, istiora, talmeh, tanosub, tajohili orif, husni ta'lil, mubolag'a, qaytarish san'atining turli ko'rinishlaridan unumli foydalanganlar va biz bularni kezi kelganda baytlar ostida keltirib o'tdik. Zotan, badiiy san'atlar "o'quvchi uchun adabiyot nafosati va sehrlarini idrok etish maktabi bo'lsa, havaskor shoir uchun mahorat saboqlaridir. Bularni bilgan kitobxon she'riyatimizdan chinakan badiiy-hissiy zavq oladi; shoirlar esa ko'rib tuganimizdek, yuqori malakali so'z san'atkorlari bo'lib yetishadilar".[4.13] Navoiy ta'biri bilan aytganda, haqiqiy shoirning ishi "ma'oniy xazoyinidan javhar termak va el fayzi uchun nazm silkiga vazn bermak"dir. [5.26]

Hech shubhasiz, Amiriyni turkiy adabiyotni yuqori cho'qqiga olib chiqqan, Navoiyga munosib izdosh sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul Amiriy haqida shunday yozadi: "Amiriy shaxsi va dunyoqarashida olimlik, oriflik, shoirlik, mutafakkirlik o'zaro muvofiqlikda doimo harakatlanib turgan... Lekin she'riyatdagi ma'naviy-axloqiy va ruhiy qiyofasi Amiriyning zamonasiga nisbatan ancha ilgarilagan, bir qator kamyob xislat va fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan yirik shaxsiyat bo'lganligini ko'rsatib turibdi".[6.11] Haqli e'tirof. Aytish mumkinki, yuqoridagi sifatlarga ega bo'lgan shaxsiyat qalamiga mansub ijod namunalari ham shunga munosib bo'ladi.

Sadriddin Ayniy aynan Umarxon Amiriy ijodiga baho berib, Alisher Navoiy davrida gullab yashnagan turkiy she'riyat Amiriy zamonasiga kelib yana qayta jonlanganligini e'tirof etadi.[7.122]

Amiriy lirik turning g'azal, muxammas, musaddas, musamman, ruboiy, tuyuq kabi 10 ga yaqin janrlarida ijod qilgan. Muxammas janri shoir iste'dodini namoyon etishda keng maydon vazifasini bajargan. Uning o'zbekcha devonida 39 ta, 1370 misra; forsiy devonida 18 ta, 665 misra; jami 57 ta, 2035 misra muxammasi bizgacha yetib kelgan. Shundan 5 tasi ta'bi xud muxammas, 1 tasi muxammas-marsiya, qolgani taxmis hisoblanadi. Amiriy o'zbek mumtoz adabiyotining Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Zaliliy, Nobiy, Bedil, Fuzuliy, Mushfiqiy kabi mashhur ijodkorlarining g'azallariga taxmislar bog'lagan. Ular faqat son jihatdan emas, balki ma'no va badiiyat nuqtai nazaridan ham Amiriy salohiyatini namoyon eta olgan. Amiriy she'riyati o'ziga xos noyob uslub, kutilmagan badiiy tasvir vositalari, badiiy detallarning turlicha jilvalanishi, tovlanishi mahsulidir. Muxammaslar orqali shoirning teran, falsafiy tafakkur ko'lamini, betakror iste'dodining olmos qirralarini, badiiy topilmalarining nodir turfaligini his etamiz. Shoir muxammas uchun g'azallarni o'tkir did bilan saralaydi. Har bir taxmisda g'azalnavis kechinmalarining mukammal takomil bosqichiga ko'tarilganining guvohi bo'lamiz. Ijodkor shunchaki beshlik bog'lamaydi. U o'z tuyg'ulariga mushtarak hissiyotlarga duch kelganda, ularni yanada kengaytirish ehtiyojini tuygandagina manba tanlaydi. Shu sababli ham,

Amiriyning har bir taxmisi badiiy ijodning nodir va yuksak namunasi darajasiga ko‘tariladi. Shoir tomonidan bog‘langan har bir misra uzukka qo‘yilgan gavhar kabi o‘rniga tushadi. Misralarning mantiqan izchilligi, so‘zlarning bir-biridan o‘sib chiqish tamoyillari, harf va tovushlar ohangidagi garmoniya, qofiya va radif, vazn bilan bog‘liq simfoniyaga alohida e’tibor berganligi seziladi. Amiriyning boshqa janrlardagi asarlari kabi muxammaslarida ham badiiy detallar shunchaki qo‘llanilmaydi. Ulardagi so‘zlar, harflar, tovushlar o‘ziga xos, yangicha, o‘z hayotlari bilan yashaydi. Shoir asarlarining originalligini ta’minlaydi. Bu fazilat esa ularni ko‘ngillarni ko‘ngillarga bog‘lovchi ko‘prik maqomiga yuksaltiradi.

Amiriy shoir sifatida Sharq adabiyotida o‘zining bir necha asrlik tarixiga ega bo‘lgan an’analarning davomchisidir. Amiriyning adabiy faoliyati nafaqat adabiy-estetik, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa. Chunki o‘sha davrda adabiyot borliqni obrazli tasvirlash vositasi bo‘lish bilan birga jamiyat mafkurasining muhim manbai hisoblangan. Bu, ayniqsa, Umarxon tomonidan 100 ga yaqin shoirlarning saroy atrofidagi bir adabiy muhit doirasida birlashtirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘z davri, o‘z mintaqasi uchun ulkan adabiy muhit hozirlagani holda qo‘shni adabiy muhitning shakllanishi va rivojlanishi uchun ta’sir ko‘rsata olgan Amiriy o‘zbek adabiyotida Hazrat Navoiydan keyin turuvchi iste’dod sohibidir. Shu boisdan ham u hayotlik paytidan boshlab to bugungi kungacha bo‘lgan adabiy jarayonlarda shoir ijodiga ayricha munosabat bildirilganligini ko‘ramiz. Amiriy Sharq mumtoz so‘z san’atidagi ilg‘or an’analar doirasida ijod qilib, she’rlarida o‘ziga xos nozik va teran fikrlar, ohorli va go‘zal tashbehlar, jozibador va ta’sirchan tasvirlar bilan noyob badiiy kashfiyotlar yaratgan mahoratli shoirlar sirasiga kiradi.

Alisher Navoiy bir g‘azalida yorning kipriklarini tasvir ob’ekti qilib oladi:

Vahki, har kiprigi bir nishtar erur zahrolud,
Garchi bor ul iki nargisda shakarxob to‘la. [1]

Kipriklarni aynan nishtarga o‘xshatilishi, uning oshiq qalbini zaharlashi Navoiy talqinida o‘zgacha bir tus olgan.

Shoirlarning o‘z topilmalari zahirasini boyitgan o‘xshatishlar esa mana shu an’analarni yangilagan yaratiqlardir. Bunday yaratiqlar Amiriyda ham talaygina.

Noziktab ijodkor Amiriy ham bu borada qator o‘ziga xos o‘xshatishlarni qo‘llaganki, bularni hech ikkilanmasdan, amiriyona tashbehlar deyish mumkin. Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, uning yor yuzi, ko‘zi, kipriklari, qoshi-yu lablarini mumtoz adabiyotdagi an’anaviy tashbehlardan foydalanib go‘zal o‘xshatishlar qilish barobarida o‘ziga xos yangi topilmalar qilganligiga ham guvoh bo‘lamiz.

Jonu dil Ka’bayi ko‘yung sari bog‘lar ehrom,
Oy yuzing qibla, tavofi sari ko‘yung Arafot. (65)

Ushbu bayt mazmunidan “sening oy yuzing qibla, sening ko‘chang esa Arafot, shu bois jon va dil Ka’ba umidida ehrom bog‘ladi”, degan mazmun anglashiladi. Bundan ma’shuqa hamma uchun orzu, butun insoniyat unga yetishish umidida yashaydi degan ma’no kelib chiqadi. Demak, ushbu bayt ilohiylik kasb etmoqda. Yuqorida ko‘rdikki, Lutfiy ma’shuqa yuzini Qur’oni karimga qiyoslaydi.

Amiriy yana bir baytida yor sochlarini ajdarhoga o‘xshatganligini ko‘rishimiz mumkin:

Gul yuzi uzra mutarro sochi pechu ham tushub,
Ajdaho zulfini jodu ko‘zlar afsun ayladi. (323)

Bu yerda shoir yor go‘zalligini vasf etar ekan, gul yuzlar ustidagi parishon sochlarni ajdarhoga qiyos etadi va ma’shuqa ko‘zlarini ul ajdarhoni ham afsun qiluvchi jodugarga mengzab, go‘zal tasvir yaratadi. Bu o‘rinda xazinani hamisha ajdarholar qo‘riqlaganligiga ham

[1] Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. – Т.: Тамаддун, 2021, – Б. 193.

ishora borligini sezish mumkin. Amiriy ijodida uchragan bunday o‘xshatish, shubxasiz, Navoiy sarchashmasidan suv ichgan.

Ma’shuqa timsolida go‘zal inson siymosi jilolansa-da, har bir san’atkor bu obrazni turfa ranglarda yangicha sayqal toptirishga intiladi. Ma’shuqaning go‘zalligini, malohatini tarannum etish uchun har bir shoir turli usullardan foydalangan va ular an’analar qobig‘ida yaxlit yoki turkum tasvir usullariga aylanib borgan. Ma’shuqaning suratiga chizgilar tabiatdagi go‘zal narsalarga qiyosan o‘quvchi ko‘z o‘ngida nihoyatda jilolanib namoyon bo‘ladi. Bu ba’zan bir, ba’zan bir necha g‘azal doirasida bo‘lgan. Amiriy ijodining o‘ziga xosligini namoyon etuvchi yana bir hodisa borki, u boshqa ijodkorlardan farqli o‘laroq, mevalarga ham ko‘p murojaat qiladi, ulardan tashbeh sifatida mohirlik bilan foydalanadi.

Amiriy she’riyati saviyasining balandligi, xalqchilligi va ommaviyligi, shuningdek, o‘z davri va o‘zidan keyingi davr adabiy muhiti vakillarini milliy va estetik ruhga ilhomlantira olganligi qalam ahlini ustozlari asarlarini har tomonlama keng va chuqur mutolaa qilib, undan mahorat sirlarini o‘rganib, g‘azallariga tatabbular qilishga, taxmislar bog‘lashiga sabab bo‘lgan. Shoh-shoir g‘azallari qo‘ldan-qo‘lga o‘tib o‘qilgan va zamon ijodkorlariga ilhom bag‘ishlagan. Buni “mavzun” radifli g‘azali maqta’sida Amiriyning o‘zi ham faxr-u iftixor bilan e’tirof etadi:

Bu g‘azal bo‘ldi Xo‘jand ahlig‘a mashhur, Amir,
Qildi taslim ango Ravnaqu Mirzo mavzun [2]

Amiriyning so‘zga munosabati, so‘z tanlash mahorati alohida diqqatga sazovor. U xalqona so‘z va iboralardan mahorat bilan foydalanadi. Bu shoir she’rlarining chuqur samimiyati va xalqchilligini ta’minlagan asosiy omillardan hisoblanadi. Shuning bilan birga uning she’rlarida o‘sha davr jonli tilida ishlatilmagan yoki tor doiradagina ishlatilgan, eski o‘zbek tili (Navoiy tili)ga xos bo‘lgan so‘zlarga ham duch kelamiz (qamug‘, o‘kush va hokazo). Ushbu so‘zlar adabiy an’ana doirasida, ziyolilar va madrasa muhitida iste’molda bo‘lgan bo‘lib, ulardan she’riy matnda istifoda etish she’rning aynan shu ijtimoiy qatlam uchun mo‘ljallab yozilganligini ko‘rsatadi. Bu hol Amiriyning faqat ayrim she’rlarida namoyon bo‘lib, umuman olganda, uning she’riyati ham keng kitobxonlar ommasi, ham yuqori saviyali xos o‘quvchilar badiiy-estetik zavq olishlari mumkin bo‘lgan asarlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий.Фарҳод ва Ширин.- Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1989. – Б. 235
2. Амирий. Девон. I. Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). – Т.: “Tamaddun”, 2017
3. Давлатов Олимжон. Маънолар хазинаси. Алишер Навоий ғазалларига шархлар. Биринчи китоб. – Т.: Тамаддун, 2021, – Б. 193.
4. Asallayev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san’atlar. T.: Tafakkur, 2015. – B. 13.
5. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. XIV том. – Т.: Фан, 1998. – Б. 26.
6. Ҳаққул И. Салтанат ва шеъриятдаги қисмат / “Амирий ва Қўқон адабий муҳити” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т.:Tamaddun, 2017. – Б. 11.
7. Айний С. Намунаи адабиёти тожик. - Д.: 2010. - Саҳ.122.

[2] Amiriy. Devon. – T.: Tamaddun, 2017. - Б. 278. Bundan keyin mazkur manbadan she’r olinganda sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.

8. Qobilova, Z. (2023). AMIRIYNING ALISHER NAVOIY G ‘AZALLARIGA BOG ‘LAGAN TAXMISLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Academic research in educational sciences*, *4*(Conference Proceedings 1), 39-43.
9. TURSUNOVA, N. (2025). ALISHER NAVOIY AN’ANALARINING MUQIMIY IJODIDAGI TAKOMILI. *Hamkor konferensiyalar*, *1*(11), 260-263.
10. Imomaliyeva, M. (2024). IRFONIY G‘OYA VA TIMSOLLAR: AN’ANA VA O ‘ZIGA XOSLIK. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 387-389.
11. JUMANOVA, S. (2025). TABIAT UNSURLARINING ALISHER NAVOIY LIRIKASIDAGI FALSAFIY VA ESTETIK TALQINI. Hamkor konferensiyalar, 1(11), 101-105.
12. Raimova, H. (2025). BIR MAVZUNING TURFA TALQINLARI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 214-216.